



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASINI FILM, AR VA IJTIMOIIY TARMOQLAR ORQALI JONLANTIRISH MASALALARI

Nasiba Sadikova Baxtiyorovna

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti o‘qituvchisi

sadikova_nasiba85@list.ru

+998911322029

Annotatsiya

Ushbu maqolada qatag‘on qurbonlariga oid mavzularini jamoatchilik ongida jonlantirishda transmedial yondashuvning kommunikativ salohiyati tahlil qilinadi. Maqola doirasida film, mobil ilova, AR o‘yinlar, podkast va ijtimoiy tarmoq platformalari orqali muzey ekspozitsiyasini keng auditoriyaga etkazishning samarali yo‘llari o‘rganiladi. Shuningdek, yagona raqamli ma’lumotlar bazasiga asoslangan transmedia strategiyasini ishlab chiqish konsepsiyasi taklif etiladi. Bu yondashuv milliy xotirani shakllantirish va tarixiy adolatni tiklashda yangi narrativ metodlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: transmedial xotira, qatag‘on qurbonlariga oid mavzular, muzey kommunikatsiyasi, AR o‘yinlar, film, ijtimoiy platforma, raqamli arxiv.

Аннотация

В данной статье анализируется коммуникативный потенциал трансмедийного подхода в процессе актуализации тем, связанных с памятью жертв репрессий, в общественном сознании. В рамках исследования рассматриваются эффективные способы донесения музейной экспозиции до широкой аудитории посредством фильмов, мобильных приложений, AR-игр, подкастов и социальных сетей. Кроме того, предлагается концепция разработки трансмедийной стратегии, основанной на единой цифровой базе данных. Такой подход представляет собой новые нарративные методы в формировании национальной памяти и восстановлении исторической справедливости.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

Ключевые слова: трансмедийная память, темы, связанные с жертвами репрессий, музейная коммуникация, AR-игры, фильмы, социальные платформы, цифровой архив.

Abstract

This article analyzes the communicative potential of the transmedia approach in revitalizing public awareness of topics related to the memory of victims of repression. The study explores effective ways to present museum exhibitions to a broad audience through films, mobile applications, AR games, podcasts, and social media platforms. Furthermore, it proposes the concept of developing a transmedia strategy based on a unified digital information database. This approach introduces new narrative methods for shaping national memory and restoring historical justice.

Keywords: transmedia memory, topics related to victims of repression, museum communication, AR games, film, social platforms, digital archive.

Milliy xotirani shakllantirish, tarixiy adolatni tiklash va fuqarolik identifikatsiyasini mustahkamlashda muzeylar jamiyatning ma'naviy-ilmiy institusional tuzilmalari qatorida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular faqat axborot va moddiy merosni saqlash maskani bo'lib qolmay, balki transdissiplinar muloqotni rag'batlantiruvchi, ijtimoiy xotirani qayta ishlab chiquvchi va jamoaviy eslash mexanizmlarini amalga oshiruvchi faol sub'ektlarga aylanmoqda.

Ayniqsa, siyosiy qatag'onlar, totalitar zo'ravonliklar kabi murakkab tarixiy jarayonlarni keng jamoatchilik ongida zamonaviy, ta'sirchan va inklyuziv usullar orqali aks ettirishda mediatizatsiya, vizualizatsiya va transmedial kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish ehtiyoji ortib bormoqda. Bu esa muzeylarning an'anaviy formatlaridan tashqariga chiqib, ularni raqamli davr talablariga mos ravishda qayta formatlashtirish zaruratini dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Hozirda biz qo'llayotgan transmedial yondashuv atamasi bu tarixiy yoki madaniy kontentni turli media platformalarda (film, mobil ilova, podkast, raqamli o'yin, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, virtual ekspozitsiyalar va h.k.) turlicha shakl va uslubda taqdim etishga asoslangan kommunikatsiya modeli hisoblanadi. Ushbu



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

yondashuv orqali tamoshabin ma'lumotlarni faqat an'anaviy muzey ekspozitsiyasi doirasida emas, balki foydalanuvchining shaxsiy axborot makonida ya'ni smartfon, planshet, virtual shlem yoki ijtimoiy tarmoq akkaunti yordamida ham qabul qilish imkoniyatlarini beradi.

Natijada, tarixiy voqelik faqatgina vizual namoish sifatida emas, balki shaxsiy mulohaza, hissiy munosabat va empatik tafakkur orqali qabul qilinishiga zamin yaratiladi. Shu tarzda media vositalar orqali qayta jonlantirilgan tarixiy kontent jamiyatda "transmedial xotira" fenomeni shakllanishiga xizmat qiladi. Bunda o'tmish haqidagi bilim va hissiyotlar bir vaqtda bir necha axborot kanallari orqali faol tarqaladi, qabul qilinadi va shaxsiylashtirishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Transmedial yondashuvning tadqiqot davomida bir necha asosiy vazifalari ko'rib chaqamiz. Tarixiy xotirani diversifikatsiyalash ya'ni, bir xil ma'lumot turlicha media shakllarda tarqalishi hisobiga ommaning turli guruhlar uchun tushunarli va qiziqarli qilib etkazishni ta'minlanishi. Empatik va interaktiv qabulni kuchaytirish orqali esa faqat ma'lumot emas, balki shaxsiy empatiya va hissiy tajriba orqali tarixni anglash imkonini yaratadi (masalan, qatag'on etilgan tarixiy shaxslarning AR orqali "jonlantirish" qiyofasi orqali). Tarixiy voqelikni shaxsiylashtirish orqali esa, jamoaviy eslashni faqat umumiy faktlar asosida emas, balki alohida shaxslar, qatag'on qurbonlar va guvohlar, arxiv ma'lumotlar asosida shaxsiy darajaga ko'tarish. Zamonaviy auditoriyaga moslashtirish yordamida yoshlar va raqamli muhitda faol foydalanuvchilar uchun media platformalarda faol qatnashish imkoniyatini yaratilishini ta'minlashdi. Yagona xotira fazosini shakllantirish esa arxiv, muzey, ta'lim va ommaviy media o'rtasidagi ma'lumotlar birligini ta'minlab, markazlashgan raqamli xotira infratuzilmasini yaratish masalasini hal etadi.

Transmedial tarixi muloqot konsepsiyasi zamonaviy media va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tadqiq etuvchi ilmiy maktablarda muhim nazariy asosga ega bo'lib, ushbu yondashuv, avvalo, Henri Jenkinsning "konvergensiya madaniyati" (convergence culture) tushunchasida o'z ifodasini topgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, yangi media muhiti faqat axborotni tarqatish vositasi sifatida emas, balki foydalanuvchi ishtirokida shakllanadigan va qayta yaratiladigan interaktiv ma'naviy muhit sifatida namoyon bo'lishi takidlangan.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

Jenkins ta'kidlaganidek, tarixiy va ijtimoiy mazmunga ega kontentning turli media kanallar orqali tarqatilishi, uning ta'sir hududini kengaytirish bilan birga, shaxsiy muloqot, empatik idrok va individuallashgan tajriba vositasiga aylanadi. Bunday yondashuv faqat ma'lumot berishdan tashqari, ijtimoiy eslash (collective memory) jarayoniga faol fuqarolik ishtirokini ta'minlaydi.

Muzeyshunoslik sohasida Eleyn Xuper-Grinxillning qarashlari shunday transmedial tendensiyalarni ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etgan edi. U muzeyni ma'lumot uzatuvchi institut emas, balki tashrifchi bilan interaktiv munosabatda bo'luvchi ta'limiy-tarbiyaviy tajriba makoni sifatida qayta talqin etgan. Uning ta'kidlashicha, vizual va multimediaviy vositalar muzey ekspozitsiyasini hissiy va ma'rifiy anglash imkoniyatlarini kengaytiradi, eksponatni faqat ko'rish ob'ekti emas, balki mulohazaga chorlovchi ma'naviy sub'ektga aylantiradi.

2000-yillardan boshlab O'zbekistonda muzeylar faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamli transformatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirila boshladi. Bu jarayonni qo'llab-quvvatlashda bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Jumladan, "Muzeylar to'g'risida"gi Qonun (2008 y., № 177-Q) muzeylarning huquqiy maqomi, funksiyalari, muzey fondi bilan ishlash tartibi va ularni saqlash, foydalanish va ommalashtirish shart-sharoitlarini belgilab berdi. Ushbu qonun muzeylarning faoliyat yo'nalishlarini zamonaviy talablarga muvofiq yo'lga qo'yishga xizmat qildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yildagi "Muzey fondi ob'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat muzeylari fondlarini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori asosida muzey ashyolarini raqamli tarzda hisobga olish, davlat katalogiga kiritish va monitoring qilish tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, **2021-yilda qabul qilingan "Madaniy meros agentligi to'g'risidagi Nizom"da muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, moddiy va nomoddiy merosni raqamlashtirish, muzey fondlarini raqamli ro'yxatga olish va vizuallashtirish kabi vazifalar maxsus davlat organlari zimmasiga yuklatildi. Ayniqsa, 2020-yillardan boshlab muzeylarda QR-kodli biografik portretlar, AR/VR asosidagi ta'limiy



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

platformalar, multimedaviy ekspozitsiyalar va interaktiv qurilmalarni joriy etish tajribalari shakllandi. Bu jarayon nafaqat muzeylarning ekspozitsiya salohiyatini oshirdi, balki ularning ta'limiy-ma'rifiy funksiyalarini ham yangi bosqichga olib chiqdi.

Shu tariqa, 2000-yillardan boshlab qabul qilingan qonunchilik asoslari va davlat siyosatining muzeyshunoslik sohasiga qaratilgan ustuvor e'tibori muzeylarning raqamli muhitga integratsiyalashuvi, zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali jamoatchilik bilan samarali muloqotga kirishishiga huquqiy va institutsional zamin yaratdi.

Qatag'on qurbonlari xotirasiga oid mavzularni yoritishda tarixning og'riqli, ammo muhim kontentini ijtimoiy ongda jonlantirish uchun quyidagi hikoya asosida shakllangan ta'sirchan bayon usullari qo'llanishi mumkin. Film va seriallar orqali ommaviy ongni shakllantirish usuli orqali tarixiy hujjatli filmlar, tarixiy ko'rsatuvlar yoki badiiy rekonstruksiyalar orqali shaxsiy taqdirlar ekranda jonlanadi. Masalan, Qatag'on qurbonlari hayotiga oid real faktlarga asoslangan qisqa metrajli film sikllari YouTube yoki kinofestival platformalarida namoyish qilinishi mumkin. Bu orqali "vizual guvohlik" yondashuvi amalga oshiriladi

Yana bir uslub sifatida mobil ilova va QR-kodli virtual ekspozitsiyalardan foydalanish. QR-kodlar yordamida tashrifchilar mobil telefon orqali har bir qatag'on qurbonining portretiga oid ma'lumotga, interaktiv hikoyalarga, audioxotiralarga ega bo'lishi mumkin. Ushbu mobil ilova push-bildirishnomalar orqali haftalik "xotira darsi" tarzida foydalanuvchiga tarixiy ma'lumot etkazib borishi orqali ham ommalashish imkonini beradi.

"AR-o'yinlar orqali tashrifchilar tarixiy voqealarni go'yoki o'z ko'zi bilan ko'rib, ularning ishtirokchisidek his etish imkoniyati. Bu usulda kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari orqali foydalanuvchi real makonda (masalan, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hududida) smartfon vositasida tarixiy voqeani "ko'radi", "eshitadi" va "ishtirok etadi" — bu esa empatik aloqani mustahkamlashga yordam beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda transmedia hikoyalardan foydalanish ya'ni, Instagram, TikTok, YouTube Shorts kabi platformalarda "bir kun, bir taqdir" formatida



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

shaxsiy tarixlarni qisqa videoroliklarda keng ommaga etkazish orqali shaxsiy empatiya va fuqarolik mas'uliyati oshiriladi.

Yagona raqamli ma'lumotlar bazasi va transmedia muvofiqlashtiruvchiligi shakllantiruvchi usul sifatida eng muhim bosqich — barcha transmedia kontent yagona ma'lumotlar bazasi (Muzey Raqamli Platformasi) bilan integratsiya qilinishi zarur. Bu bazada arxiv hujjatlari, foto, audioguvohliklar, virtual turlar va kontentning turli platformalarga taqsimlangan holatdagi ko'rinishlari mavjud bo'ladi.

Transmedial yondashuv — bu tarixiy xotirani faqat o'tmish voqeligi sifatida emas, balki hozirgi jamiyat uchun ma'naviy-axloqiy va fuqarolik-tarbiyaviy ahamiyatga ega tajriba sifatida qayta talqin qilish imkonini beradi. Ayniqsa, qatag'on kabi og'riqli tarixiy jarayonlarni raqamli muhitda keng qamrovda yoritish muzey faoliyati doirasini an'anaviy ekspozitsiya chegaralaridan chiqarib, uni jamiyat bilan faol muloqotga kirishuvchi kommunikatsiyaviy platformalar darajasiga olib chiqadi.

Bu jarayonda yosh avlodda empatik tafakkur, tarixiy mas'uliyat, insonparvarlik qadriyatlari va insoniy adolatga nisbatan ongli munosabat shakllanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va transmedial strategiyalarga asoslangan yagona ma'lumotlar platformasini yaratish — nafaqat muzeylar faoliyatini innovatsion jihatdan qayta formatlashtirish, balki O'zbekistondagi xotira siyosatida yangi bosqichni belgilaydigan muhim ilmiy-amaliy qadam sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Falk, J. H., & Dierking, L. D. (2013). The Museum Experience Revisited. Walnut Creek, CA: Left Coast Press.
2. Hooper-Greenhill, E. (2007). Museums and Education: Purpose, Pedagogy, Performance. Routledge.
3. Jenkins, H. (2006). Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. NYU Press.
4. Hooper-Greenhill, E. (2000). Museums and the Interpretation of Visual Culture. Routledge.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

5. Parry, R. (2007). Recoding the Museum: Digital Heritage and the Technologies of Change. Routledge.
6. United States Holocaust Memorial Museum (USHMM). (2016). Digital Learning and Augmented Reality Experiences. www.ushmm.org
7. Economou, M. (2015). Heritage in the Digital Age: Museums and Augmented Reality. Curator: The Museum Journal, 58(3), 261–272.
8. The Museum of the Future (2022). Transmedia Storytelling in Historical Museums. ICOM Journal.
9. Разграбленные музеи и поддельные артефакты в Узбекистане – The Diplomat Автор: Нигинахон Саида
10. UNESCO (2020). Memory of the World in the Digital Age: Digitization and Preservation. UNESCO Publishing.